

O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA PARONIMLARNING BADIY NUTQDA O'ZIGA XOS USLUBIY AHAMIYATI

Ozatova Nodira Quvondiq qizi

Urganch Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Barcha tillarda talaffuzi, tovushi va morfem tuzilishi o'xshash, biroq lug'aviy ma'nolari har xil yoki qisman yaqin bo'lgan ko'plab leksik birliklar mavjud. Ushbu maqolada o'zbek va nemis tillaridagi paronimlarning lingvistik tabiati, ularning badiiy nutqdagi o'ziga xos uslubiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: paronimiya, leksik tarkib, lug'aviy ma'no, badiiy nutq.

Tilning leksik birliklari tarkibidagi talaffuzi, eshitilishi va morfem tarkibi o'xshash, biroq leksik ma'nolari boshqa-boshqa yoki qisman yaqin bo'lgan so'zlarga paronimlar deyiladi. Tilda ana shunday so'zlarning mavjud bo'lish hodisasi esa *paronimiya* hodisasi hisoblanadi.

Tilning leksik tarkibidagi bunday birliklar bir-biriga juda o'xshash bo'lganligi sababli ko'p hollarda paronimiya muammosining yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Bu jarayon nutqda paronimlarni ataylab yaqinlashtirish yoki ularning ma'nosini bilmay, farqlamay adashtirib qo'llash (nutqiy xato) natijasida kelib chiqadi. Paronimlarni qo'llashda farqlamaslik, ularni adashtirish til hodisasi emas, balki muayyan til vakillarining shu til lug'aviy me'yorlarini yetarli darajada egallamaganligining natijasidir. Paronimlarni xato qo'llash, odatda, kam tanish bo'lgan so'zlarda uchraydi.

Paronimlarning nutqda, ayniqsa, badiiy nutqda o'ziga xos uslubiy ahamiyati bor: paronimlarning tovush tarkibidagi o'xshashlik, bir-biriga yaqinlik ba'zan, qisman bo'lsa-da, shakl neytralizatsiyasiga olib keladi, oqibatda ayrim kishilar nutqida ularni farqlay olmaslik holatlari yuz beradi. Bunday holatni payqagan yozuvchilar, shoirlar yoki dramaturglar paronimlardan obraz yoki personajlarning ma'naviy dunyosini, nutqiy saviyasini obrazli qilib ifodalash maqsadida foydalanadilar. Bu hodisa tilshunoslikda *paronomaziya* deb nomlanadi.

«Charxpalak» videofilmidan keltirilgan quyidagi epizodda buni yaqqol sezish mumkin. Unda atrofiga laganbardor yugurdaklarni to'plab olgan bir obro'talab, mansabdor shaxs aroq ichishdan bosh tortgan raqqosa qiz Zulxumor Hamidovaga qarata shunday deydi: «Mayli, majbur qilmaymiz, bizga bu qizning sanoati juda ma'qul.» Bu nutqiy parchada sanoat so'zi san'at leksemasi o'rnida qo'llangan bo'lib, u jamiyatda uchrab turadigan ayrim shaxslarning ma'naviy qashshoqligini, tilga befarqligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Demak, asar muallifi (Sharof Boshbekov) shu epizodni tasvirlashda san'at va sanoat so'zlarining paronimlik munosabatidan juda o'rinli foydalangan. [1]

Atoqli

yo'zuvchi Abdulla Qahhorning «San'atkor» hikoyasida bo'sa va bo'lsa paronimlaridan uslubiy figura sifatida foydalanilganligining guvohi bo'lamiz. Hikoyada nomi chiqqan ashulachi san'atkorning «bo'sa» so'zini «bo'lsa» deb qo'llagani zalda o'tirgan bir traktorchi tomonidan tanqid qilinadi. Bundan darg'azab bo'lgan san'atkor o'ziga-o'zi deydi: «labingdan bo'lsa olsam, e, shakarlab» deganim u kishiga yoqmapti, «bo'lsa» emas, «bo'sa» emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar «bo'sa, bo'masa» deydi. Artist kulturniy odam — gapni adabiy qilib aytadi - «bo'lsa, bo'lmasa» deydi». Hikoyadan keltirilgan bu parchada bo'sa va bo'lsa paronimlaridan mohirona foydalanish «taniqli ashulachi san'atkorning» istehzoli obrazini yaratishga xizmat qilgan.[2]

Shuni ta'kidlash lozimki, nemis tilida ham nozik semantik kichik farqlar bilan ajralib turadigan paronimlar yetarlicha. Masalan: freundlich-freudig, Kapitel-Kapitell, adoptieren-adaptieren, haken-hacken. Bu paronimlarning ko'pchiligi, ularning ma'nolari lingvistik lug'atlarda izohlanadi.

Nemis xalqining buyuk shoirlaridan biri, dramaturg F. Shiller o'zining ham she'rilarida, ham nasriy asarlarida paronimlarni qarama-qarshi qo'yish va ularni qiyoslash usullaridan unumli foydalangan. Ko'pincha o'xshash tovushli so'zlarning almashtirib qo'llanilishi so'z o'yinining asosi bo'lib, nutqqa kulgili ma'no beradi.

Misol tariqasida Shillarning “Wallenstein” trilogiyasida keltirgan quyidagi jumlaning tahlil qilish mumkin: *In dem Hotel, in dem sie übernachteten, waren die Treppen mit eleganten Säufeln belegt.*[3] Ushbu jumla orqali paronimlar ishtirokidagi so'z o'yinida kontekstning qay darajada muhim ahamiyat kasb etishi yaqqol namoyon bo'lgan. *Hotel, Treppen, eleganten* leksemalaridan keyin kitobxon yohud tinglovchi *Läufeln* so'zini kutadi, biroq to'satdan *Säufeln* so'zini ko'rgach ajablanish hissi uyg'onadi, aynan bu holatni “zarba effekti” deyish ham mumkin. Bu ko'rinishdagi so'z o'yinlari faqatgina paronimlarga xos hodisa hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat sifatida aytish mumkinki, paronimlardan nazmda qofiyalarni me'yorga solish maqsadida ham qo'llaniladi va Shiller bu borada quyidagi satrlarida paronimlardan mohirona foydalanganiga guvoh bo'lishimiz mumkin:

«*Kümmert sich mehr um den Krug als den Krieg,
Wetzt lieber den Schnabel als den Sabel...
Und das Römische – daß Gott erbarm!
Sollte heißen römisch Arm*»

Bu yerda asosiy e'tibor so'z o'yiniga emas, balki nazmda asosiy me'yor qofiya hisoblanganligi bois ularning bir-biriga mos kelishiga qaratilgan. Paronimlar boshqa leksik birliklar qatori katta potensial uslubiy imkoniyatlarga ega bo'lib, ularni mohirona amalga oshirish esda qolarli tasvirni yaratishga, nutqingizga o'ziga xos hissiy va ifodali nozik farqlarni berishga imkon beradi va hazil, istehzo, satira vositasi bo'lib xizmat

qiladi. Biroq, asl va o'zlashtirilgan bunday so'zlarni to'g'ri ishlatishda ko'pincha qiyinchiliklarga duch kelinadi.

Xulosa qilib aytganda, nafaqat ingliz va nemis tillarida balki, barcha tillarda paronimlarning badiiy uslubiy xususiyatlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Va ularni har doim o'z o'rnida ma'nosiga ko'ra qo'llay olish bu katta mahoratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. -T.: «O'qituvchi», 1996.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 2 - qism. - T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004.
3. F. Shiller. Wallenstein. -Anaconda Verlag, 2019.